

## Sport - sog'lik garovi

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida sportni rivojlantirishga va yosh sportchilarni Xalqaro miqyosda raqobatbardoshligini oshirish, jismoniy salohiyati yuqori, ruhiy tetik sportchilarni tayyorlashga katta e'tibor ko'rsatib kelinmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbusni ikkinchi tashabbusi aynan yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasidagi qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan. Ushbu sharoitlardan unumli foydalanish talabalarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida "Gidrotexnika qurilishi" fakulteti joriy yilning 28-noyabr kuni fakultet dekani B.B.Hasanov va yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari A.I.Azimov, fakultet yoshlar ittifoqi tashabbusi bilan 1-kurs talaba-yoshlari o'rtasida "SPORT - SOG'LIQ GAROVI" shiori ostida sportning "Mini-futbol" turi bo'yicha dekan kubogi bo'lib o'tdi. Unda 10 ta komanda ishtirok etib, 109-guruh talabalari 1-darajali diplom va dekan kubogiga, 102-guruh talabalari 2-darajali diplom va 105-guruh talabalari 3-darajali diplomga sazovor bo'lishdi.



TIQXMMI matbuot xizmati